

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA MULTIMEDIA  
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Mahmudova Setora

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari, multimedia maxsulotlarining samaradorligi haqida so'z yuritilgan. Maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga oid qabul qilingan qaror va farmonlar ijrosi sifatida yaratilgan multimediali platformaning samaradorligi, amaliyotda foydalanilganligi va samaradorligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** *Multimedia, axborot texnologiyalari, platform, maktabgacha ta'lim tashkiloti.*

Hozirgi kunda respublikamizda ta'lim tizimini raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan umumiyo'rta ta'lim va oliy ta'lim tizimlarida raqamli texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Elektron darsliklar, elektron ta'lim resurslari va o'quvchilar uchun mo'ljallangan maxsus multimedia dasturlari, electron platformalar buning yaqqol dalilidir. Ammo ta'limning bиринчи bo'g'ini bo'lmish maktabgacha ta'lim tizimi nisbatan ancha orqada qolgan. O'zbekistonda ushbu muammoning sabablaridan biri sifatida o'zbek tilidagi maktabgacha yoshdagi bolalarga mo'ljallangan elektron ta'lim resurslarining juda kamligini va MTT lari axborot kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlanmaganligini keltirish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sон Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabr PQ-4884 sonli "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" gi qaroriga asosan axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda boshqa mafaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2022 yil 1 yanvarga qadar maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy o'qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish vazifasi belgilangan<sup>12</sup>.

Ta'lim materialining tushunarli bo'lish tamoyili kompyuter xotirasiga kiritilgan va o'rganishga taalluqli materiallarni monitor ekraniga chiqarish va namoyish etilishi asosida amalga oshiriladi. Dasturchi elektron ta'lim resursini tayyorlashda ta'lim berish jarayonida o'quv materialining bolaga tushunarli bo'lish tamoyiliga alohida e'tibor berishi lozim. Tanlangan o'quv materiali murakkab bo'lmasligi, osondan qiyinda qarab bosqichma-bosqich amalga oshirilishi inobatga olingan. Dasturda

<sup>12</sup> O'zbekiston Raspublikasining 2019 yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595 sonli qonuni.

bolalarning yosh davrlari ajratilagan bo'lib, har bir yosh davri bo'yicha mavzular "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida alohida joylashtirilgan. Har bir mavzu bo'yicha ma'lumot beruvchi animatsion video roliklar yaratilgan va yosh davriga mos ravishda platformaga joylashtirilgan, har bir mavzuni mustahkamlashga doir 15 ga yaqin interfaol kompyuter o'yinlari kiritilgan. Elektron platforma orqali bilim berishning an'anaviy usullardan afzalligi shundaki har bir video rolik orqali mashg'ulot mavzularimultfilmlar orqali bola tilida yoritiladi, buorqali bolaning bilim olishga ishtiyoqi ortadi.

Kompyuter o'yinlari orqali bolalar multaqil ravishda topshiriqlarni bajarishda xato javobni belgilasada unga kompyuter tanbeh bermaydi, do'stlari orasida izza qilmaydi natijada bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Rivojlanayotgan zamonaviy axborot jamiyati sharoitida bolalarning katta maktabgacha yoshdan boshlab kompyuterni erta o'rghanishi ob'ektiv zaruratga aylanmoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyalaridan ko'proq va muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Ular o'quv jarayonini sezilarli darajada boyitadi, uni yanada samarali qiladi. Axborot texnologiyalari bolaning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishni eng to'liq va muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi, yangi ma'lumotlarga barqaror qiziqishni shakllantirishni ta'minlaydi. Ular bolalarning kognitiv faoliyati uchun juda samarali motivator bo'lishi mumkin, chunki ular qiziqarli ijodiy muammolarni hal qilishga yordam beradi va o'rganish uchun ilgari ko'rilmagan imkoniyatlarni taqdim etadi. Shu bilan birga, bolalarning ta'lim faoliyatiga qiziqishi sezilarli darajada oshadi, ularning bilim qobiliyatları darajasi oshadi va maktabgacha yoshdagi bolalarning qobiliyatları yanada samarali rivojlanadi.

Tushuntirish va mustahkamlashning yangi xilma-xil va g'ayrioddiy usullaridan foydalanish, ayniqsa o'yinlar usulidan foydalanish, o'quv jarayonida bolalarning e'tiborini oshiradi, ularning ixtiyoriy diqqatini faollashtirishga va bolalarning aqliy jarayonlarini rivojlanishiga yordam beradi. Axborot texnologiyalari o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlaydi va tanishish uchun taklif qilinadigan material hajmini oshirishga imkon beradi, har bir bola individual xususiyatlarga muvofiq ma'lumotning murakkablik darajasi va o'zlashtirish tezligini tanlash imkonini beradi. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun dastur materiali ko'p marta takrorlanishi kerak. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarni bilih kabi muhim ta'lim sohasida samarali rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, u Davlat ta'lim standartida belgilangan ustuvor ta'lim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim vositalarining keng qo'llanishi bolalarni matabga tayyorlash jarayonining muvaffaqiyatli kechishiga xizmat qilmoqda. Katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarning axborot madaniyatining boshlang'ich asoslari matematika va informatika kabi muhim ta'lim sohasini o'zlashtirish jarayonida kichik yoshdagi o'quvchilarning axborot madaniyatini yanada izchil rivojlantirish uchun propedevtik rol o'ynaydi.

Maktabgacha ta'lim tizimida eng qulay va tez-tez qo'llaniladigan vosita bu multimediali taqdimotlardir. Fan o'qituvchilari va bolalarning ota-onalari maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda multimedia vositalaridan foydalanish samaradorligini baholaydilar.

---

2.Xalikova U.M. (2020). Maktabgacha ta'lim muassasalarida axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbliji.

Multimediyali taqdimotlarning afzalliklarini ma'lum bir kontekstda bilimlarni taqdim etishda, o'rganish uchun motivatsiyani oshirishdadir, chunki kamchiliklar bolaning jismoniy va ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillardir. Xuddi shunday nuqtai nazar otaonalar tomonidan ham ifodalanadi. Aksariyat ota-onalar bolalarning kompyuterdan ko'p foydalanishini hohlamaydi va oilaviy ta'limda multimedia taqdimotlaridan foydalanmaydi. Afsuski, ota-onalar o'rtasida o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatdiki, bolaning kompyuterda uzoqroq qolishining umumiy tendentsiyasi mavjud va bolalar asosan kompyuter o'yinlarini o'ynashadi va multfilmlarni tomosha qilishadi. O'yinlar va multfilmlarning mazmuni odatda ota-onalar tomonidan qattiq nazorat qilinmaydi. Katta va tayyorlov guruhlari o'quv jarayoniga multimedia texnologiyalarining kiritilishi shuni ko'rsatdiki, bolalar multimedia yordamida bajarayotgan ishining yakuniy natijasini yaxshiroq ko'radilar, uni tezroq va to'g'ri bajarishga qiziqadilar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini raqamlı texnologiyalar asosida rivojlantirish, ularning aqliy rivojlanish salohiyatini dunyo tendentsiyalari darajasiga ko'tarish davr talabidir

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Raspublikasining 2019 yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595 sonli qonuni.
2. Xalikova U.M. (2020). Maktabgacha ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbliji.
3. Hasanboyeva.O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2006.
4. Mavrusov A. Ma'anaviy barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent:
5. Максютова Г. Ю., 2012. Информационные технологии в иноязычном образовании успешного дошкольника [Текст] // Проблемы и перспективы развития образования: материалы II междунар. науч. конф. - Пермь: Меркурий, 20121